



LOGISTIKA TERMINLARINING LINGVISTIK TADQIQI

Ismoilov Dilxushbek Dilshodbek o'g'li

Andijon davlat chet tillar instituti

Roman- German va slavyan tillar fakulteti rus tili yo`nalishi

Annotatsiya. Ushbu maqolada logistika sohasidagi terminlarning lingvistik jihatlari, uning o'ziga xosligi, olib borilgan tadqiqotlar natijalari muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: logistika, tilshunoslik, lingvistika, tahlil, tarjima.

KIRISH

Avvaldan qo'llanilib kelingan «termin» va «terminologiya» masalalari yuzasidan ko'plab tadqiqot ishlari olib borilgan bo'lib, turli ta'riflar berilgan. Termin (lotincha terminus – chegara, had) – bilim yoki faoliyatning maxsus sohasiga oid doir tushunchani ifodalovchi so'z yoki so'z birikmasidir.

ADABIYOTLAR SHARHI

Terminologiyani tushunishdagi xilma-xillik (rus tilshunosligida) o'zbek tilshunosligida bo'lgani kabi, xorijiy til ilmida ham mavjud. Terminologiyaning mohiyati xususidagi nuqtai nazarlar tafovuti haqida D.Sageder shunday yozadi: Terminologiyani ilmiy fan sifatida qarashga doir nuqtai nazarlar ancha tarqoq. Hozirgi vaqtda ushbu soha va unga yondosh bo'lgan bir qator munozarali masalalar bo'yicha turli talqinlar mavjud. Terminologiya fanmi yoki faqat metodmi? Terminologiya o'z xususiy nazariyasiga ega bo'lgan alohida gumanitar fan maqomiga egami yoki u o'zining nazariy imkoniyatlari uchun nisbatan konsolidatsiyalangan fanlardan minnatdor bo'lishi kerakmi, nazariy jihatdan nisbatan barqaror biror fan tarkibimi? <...>. Terminologiya fanining ahamiyatini kamsitib bo'lmaydi. Uni o'z evolyusiyasi va zamonaviy texnologiyalarning tez o'zgaruvchan olamida oldinga tomon harakatlanishi tufayli tarixan muhim kuch sifatida ko'rib chiqish lozim [1].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Logistika sohasi mutaxasislari tomonidan olib borilgan tadqiqotlar tahlillar natijasida ushbu soha bilan kesishgan 12 ta fan jabhalari, jumladan, menedjment, savdo-sotiq faoliyati, marketing, narx bo'yicha ta'lim, xalqaro munosabatlar, transport, informatika, texnologiya, mashinasozlik kabilar aniqlangan¹. Ushbu dalil logistika terminologiyasi tizimi V.M. Leychik tavsiflagan unifikatsiya tamoyili asosida shakllanganligini tasdiqlaydi. V.M. Leychikning tavsiflashicha, "bir nechta sohaga oid bo'lgan bilimlarni kompleks tarzda egallash terminlar majmuining birlashuviga olib keladi" yana shuni ta'kidlaydiki, "ma'lum bir sohaga oid terminologiyaning yasash jihatlari tahlil qilganda aniq bo'ldiki, ushbu usullar leksemalarning tabiiy ravishda tilda yasalishi yo'llari bilan mos keladi"[2]

Logistika sohasining asosiy tadqiq ob'ektlaridan biri oqim bo'lib, asosiy terminlari – moddiy oqim, axborot oqimi, moliyaviy oqim va boshqalar. Ushbu tushunchaning logistika sohasidagi ma'nosiga oydinlik kiritish maqsadida keltirilgan turli izohlarga murojaat qilamiz: "harakatlanuvchi massa emas balki [3], bir butun sanaladigan ob'ektlar majmui..."



[4] yoki “ishlab chiqarish manbasidan belgilangan joyga o‘zgartiladigan bir xil iqtisodiy elementlar to‘plami” [5].

Logistik terminlarning leksik xususiyatlari deganda ularning ya’ni terminlarning asl ma’nolarini tushuniladi. Shunday ekan, keltirilgan terminlar quyidagicha ma’nolarga ega:

PU – pick up – yukni olish manzili

Del – delivery – yukni yetkizish manzili

Ingliz tilida ham o‘zbek tilida ham logistika sohasiga oid so‘zlar barchasi bir xil terminlardan foydalanib ish olib boriladi. O‘zbek logistikasidagi so‘zlar ingliz logistikasi bn bir xilligining asosiy sababi, ingliz logistik terminlarning ommalashib ketganligi desak bo‘ladi.

O‘zbek tili ilmiy terminologiyasida terminlarning uch turi farqlanadi:

- tarixiy-an’anaviy terminlar. Ushbu turga taalluqli leksemalar juda qadimdan termin vazifasida qo‘llanib keladi va o‘zbek terminologiyasining o‘zagini tashkil qiladi. Masalan, to‘siq, yulduz, soliq, kirim, pul, oldi-sotti, so‘roq, tomir (tib. arteriya), oqsillar (tib. belok, belki), isitma (tib. lixoradka) singari ko‘pgina terminlar shular sirasidandir;

- terminologik tizimning boyishiga bois bo‘lgan nisbatan yangi termin- o‘zlashmalar: skaner, sayt, karate, Internet auksion, tomografiya, spektr, respirator, psixolingvistika, pragmatika, lingvokulturologiya, semema, parodontoz, bakteriya, videotelefon, katapult, radiolokator, tatami, pley-off, gravatizatsiya, spagetizatsiya, transgender, freym, geshtalt, konsept, disskurs, lemmatizatsiya va sh.k.;

- o‘zbek tili so‘z yasovchi qoliplari negizida hosil qilingan terminlarni ikki guruhga taqsimlash mumkin: a) ona tili materiallari negizida paydo bolgan tenminlar: bog‘lovchi, to‘ldiruvchi, kesim, tenglik, qayta saylov, to‘lov, boshqaruv, bo‘g‘ilish (tib. asfiksiya), titrash (tib.trepetaniya), boshqarma, yasama (‘til. derivat), qo‘nish, qurilma, ko‘chish (til. transpozitsiya), suzg‘ich, yutgich (harbj, ikkilamchi bozor; qo‘shimcha qiymat solig‘i, terma jamoa va sh.k.; b) o‘zlashmalar ishtirokida yuzaga kelgan terminlar: raketaeltgich (ракетаносец), avtomobilsozlik (автомобилостроение), raketasozlik (ракетостроение), eshelonlashtirish (эшелонирование), shturmchi (штурмовик), shifrlash (шифрование) va h.k.

XULOSA VA MUNOZARA

Ta’kidlash joizki, logistikaning ingliz tili termin-tizimi nisbatan yosh va doimiy ravishda o’sib boruvchi leksik birliklar majmuidir. Logistika muntazam boshqa maxsus sohalar, jumladan, transport, menejment, moliyaga oid terminologiya bilan o‘zaro aloqada bo‘lib, ularga xos terminlarni o‘zlashtirib yoki o‘zining doirasini doimiy kengaytirib boradi. Bundan anglash mumkinki, termin-tizimi to‘liq shakllanmagan, balki, shakllanish bosqichida yekanligini ko‘rsatadi. Demak, logistika termin-tizimi bir-biriga bog‘liq bo‘lgan fan sohalarining terminlari vositasida doimo o‘zining terminologiyasini to‘ldirib boradi. Bundan tashqari, ushbu soha termin-tizimida qo‘llanila boshlangan terminlar o‘ziga xos ma’no kasb yetadi. Shunga qaramay, ushbu soha termin-tizimi o‘ziga xos xususiyatlarga yega bo‘lib, ayniqsa tarkibiy qismida bu holat yaqqol ko‘zga tashlanadi.



ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Nishonov P. Frenchman va uzbek tillari jurist terminology sining kiyosiy- tipologiya tadqiqi: Filol. muxlis. nom. ... diss. mavhum – Toshkent, 2009. – 26 b.
2. Golovin B.N. Terminlar haqidagi ta'limotning lingvistik asoslari. -M.: 87.- 235
3. Reformatskiy A.A. Termin tilning leksik tizimining a'zosi sifatida // Strukturaviy tilshunoslik muammolari. -M.: Nauka.1968. - 210 b.
4. Kuzkin N.P. Terminning mohiyati masalasi bo'yicha // Leningrad davlat universitetining xabarnomasi. - № 20. - Nashr. 4. – L., 1962. – S. 132
5. Pronina R.F. Ingliz ilmiy va texnik adabiyotlarini tarjima qilish. - M.: Oliy maktab, 1996. -145 b.